

IHOTAZORLARNING TURLARI VA TUZULISHI.

¹Egamberdiyev Murodjon Xolmirzayevich,

egamberdiyevmurod1991@gmail.com

²Ernazarov Asqarali Yusufovich

¹Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti assistenti

²Surxondaryo viloyati Bobotog' davlat o'rmon xo'jaligi inspektori.

Annotatsiya. Sug'oriladigan yerlarda barpo etiladigan dalani himoyalovchi o'rmon ihotalari bir qator vazifalarni bajaradi: Ihota daraxtzorlar oralig'ida mo'tadil havo namligi vujudga kelib, qishloq xo'jalik ekinlarini hosildorligini oshiradi va yosh nihollarini me'yoriy rivojlanishi uchun imkoniyat yaratadi. Ihotazorlarning samaradorligi asosan ularning turlariga, ekilish sxemasiga va qator sonlariga bog'liqdir.

Kalit so'zlar: Shamol, ixota o'rmonlari, daraxt, tuproq, eroziya, sug'oriladigan yerlar, havo, chang, namlik, qishloq xo'jaligi panjarasimon, tuzulish.

ТИПЫ И СТРУКТУРА ОБЪЕКТОВ.

Аннотация. Лесные изгороди, защищающие поля, возводимые на орошаемых землях, выполняют ряд функций: Изгородь создает умеренную влажность воздуха между рядами деревьев, что повышает урожайность сельскохозяйственных культур и создает возможности для нормального развития молодых саженцев. Эффективность живых изгородей во многом зависит от их вида, схемы посадки и количества рядов.

Ключевые слова: Ветер, местные леса, деревья, почва, эрозия, орошаемые земли, воздух, пыль, влажность, сельскохозяйственные ограждения, конструкция.

TYPES AND STRUCTURE OF OBJECTS.

Abstract. Forest hedges protecting fields erected on irrigated lands perform a number of functions: The hedge creates moderate air humidity between the rows of trees, which increases the yield of agricultural crops and creates opportunities for the normal development of young seedlings. The effectiveness of hedges largely depends on their type, planting pattern and number of rows.

Keywords: Wind, local forests, trees, soil, erosion, irrigated lands, air, dust, humidity, agricultural fences, design.

Surxondaryo viloyati qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqori hosil uchun qulay sharoitga ega hududlardan biri hisoblanadi. Ammo, hududning janubiy tumanlarida yoz paytida iqlimning issiqligi, havoning quruqligi, suvning tanqisligi, garmsel shamollarning esishi, tabiiy o'rmonlarning kamligi qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqori hosil olishda to'sqinlik qiladi. Bularning muvozanatini ushlab turuvchi asosiy vosita ihotazorlardir.

Sug'oriladigan yerlarda barpo etiladigan dalani himoyalovchi o'rmon ihotalari bir qator vazifalarni bajaradi. Kuchli va o'rtacha shamol esuvchi mintaqa hududlarida havo haroratini o'zgartirib beradi.

Ihota daraxtzorlar oralig'ida mo'tadil havo namligi vujudga kelib, qishloq xo'jalik ekinlarini hosildorligini oshiradi va yosh nihollarini me'yoriy rivojlanishi uchun imkoniyat yaratadi. Ihotazorlar orasidagi masofa, o'rmon meliorativ hududlarga bog'langan holda belgilanadi va daraxtlarning balandligi va ularning qaysi masofaga samarali ta'sir qilishi e'tiborga olinadi. Ihotazorlarning samaradorligi asosan ularning turlariga, ekilish sxemasiga va qator sonlariga bog'liqdir.

Ihota o'rmonlari tuzilishiga qarab 3 turga bo'linadi :

- 1. Zich joylashgan.**
- 2. Yarim panjarasimon.**
- 3. Panjarasimon (to'rsimon).**

Har bir yuqorida aytib o'tilgan ihota o'rmonlari daraxtlarni o'tkazish sxemasiga va keyinchalik unga ishlov berishga qarab bir biridan foydalanadi.

- **Zich -shamol o'tkazmaydigan. 3 ta yarusdan, bosh (katta) daraxtlardan va butalardan tashkil topadi.**
- **Yarim panjarasimon. Bu ihota o'rmon tuzilishi pastda 1,5-2 m balandlikgacha katta ochiq joylar. Yuqori tomonda shoxchalari bir biriga birikkan yopiq bo'ladi. Bu bitta katta daraxtlardan hosil bo'ladi.**
- **Panjarasimon (to'rsimon) bu ihota o'rmonida bir tekisroq ochiq joylar bo'ladi. Bular daraxt va bir oz butalardan tashkil topadi.**

Ihota o'rmonzorlarining fizik modeli:



- Oddiy ihota daraxtzorlar asosiy shamol yoʻnalishiga perpendikulyar joylashadi.
- Yordamchi ihota daraxtlar asosiy ihota daraxtzorlarga nisbatan perpendikulyar boʻladi.
- Asosiy ihota oʻrmonlarining oraligini quyidagi formulalar bilan aniqlaymiz:

$$Z = K \cdot H$$

Zich qator $K = 15-20$

Toʻrsimon konstruksiya $K = 20-25$

Panjarasimon konstruksiya $K = 25-30$

Har xil tuzulishga ega boʻlgan ihota daraxtzorlari va aralashtirish sxemalarda qoʻllaniladigan daraxtlar va butalarni 3 asosiy kategoriyaga boʻlish mumkin.

- Asosiy (bosh) daraxt turlari.
- Ikkinchi darajali daraxt turlari (yordamchi).
- Butalar.

Bu boʻlinishlar maʼlum bir darajada faraziy qabul qilingan, bir turga ega daraxt har xil oʻsish sharoitlarida ham asosiy, ham ikkinchi darajali daraxt boʻlib qoʻllanilishi mumkin.

Asosiy daraxt turlari mahalliy aniq bir sharoitga quyidagi belgilari bilan tanlanadi.

- Biologik chidamliligi va koʻp yashovchanligi.
- Yashil koʻrsatkichi oʻsishi va shoh-shabbalari yaxshi rivojlangan, ildiz sistemasi yaxshi rivojlangan.
- Keyinchalik oʻz-oʻzi koʻpayib yetilgan daraxtlar.
- Kelajakda yaxshi sifatli yogʻoch olish.

Ikkinchi darajasi (yordamchi) daraxt turlari bu asosiy daraxt turlaridan odatda yomonroq biologik chidamlilikga ega va kamroq yashovchan boʻladi va nihoyat butalar tuproqni saqlaydigan parda shakllantirish uchun yetishtiriladi. Bu tuproqning issiqlik va namlik holatini, suv rejimini tartibga solishdir.

Ihota chet qatorlariga, tuproq yuza qatlamiga yaqin joylashib uzoq oraliqqa ildiz yetadigan daraxt va buta turlarini yaqinlashtirmaslik kerak. Katta shoxlar oʻtib, qishloq xoʻjaligi ekinlariga soya qiladigan daraxt turlarini kiritmaslik kerak.

Ihotazorlarning samaradorligi asosan ularning turlariga, ekilish sxemasiga va qator



sonlariga bog‘liqdir. Shamol tezligi katta bo‘lgan xududlarda yarim panjarasimon (35%) ihotazorlar yaratish maqsadga muvofiqdir. Shamol o‘rtacha tezlikda esadigan joylarda panjarasimon (35-50%) ihotazorlar yaratilmog‘i lozim. Shamol tezligi past bo‘lgan xududlarda shamolni o‘tqazish qobiliyati 75% bo‘lgan ihotalarni vujudga keltirmoq kerak.

Qattiq shamol esadigan hududlarda shamol kelib uriladigan asosiy dala ihotazorlari 4 qatorli, undan keyingilari esa 3 qatorli bo‘ladi, yordamchi ihotazorlar esa 2 qatorli bo‘ladi.

O‘rtacha tezlikda shamol esadigan joylarda asosiy ihotalar 3 qatorli, yordamchilari 2 qatorli bo‘ladi. Ihotazorlarda qatorlar oralig‘idagi masofa 3 metr, qatordagi daraxtlar oralig‘i 1,5-2 metr qilib olinadi. Buta o‘simliklarining oralig‘i 1,5 m bo‘ladi. Kanal va yo‘l bo‘ylarida ekiladiga bir qatorli daraxtzorlarda, ko‘chatlar oralig‘i 2 m bo‘ladi.

Qishloq xo‘jaligi yerlarida shamol qattiq esadigan xududlarda ihotazorlar yaratish uchun umumiy maydonga nisbatan 3-3,5% o‘rtacha tezlikda shamol bo‘ladigan joylarda 2-3%, shamol kam esadigan xududlarda 0,5-0,1% yer maydoni ajratiladi.

Ihotazorlarni butun meliorativ xususiyatlaridan to‘liq foydalanish maqsadida sug‘oriladigan yerlarning o‘rmonzorlar bilan qoplangan qismini shamol qattiq bo‘lgan joylarda 8-10%, o‘rtacha tezlikdagi xududlarda 6-7%, shamol kam bo‘lgan joylarda 4-5 % yetkazish lozimdir.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Xonazarov A.A. Tuproq eroziyasi va tog‘- o‘rmon meliorasiyasi. Toshkent, O‘qituvchi, 1998,
2. Qumzullayev F.K, Xonazarov A.A. Ixota daraxtzor va dexqonchilik. Toshkent, O‘qituvchi. 2002.
3. Qayimov A.Q., Berdiyev E.T. Dendrologiya (darslik) T.: «Cho‘lpon», 2012. -336b.
4. Qalandarov M.M., Xamroyev.X.F, Yuldashov Y.D. O‘rmonchilik. Darslik. T: “ToshDAU nashr-tahririyat bo‘limi”, 2019. 232 bet.
5. Ablayev S.M., Yuldashov Y.X. Madaniy o‘rmonlar. Toshkent. 2008
6. Молчанова.А.И, Бойко.Н.П. Полизащитное лесоразведений в Узбекистане Из-во “Лесная промышленность” М 1969.